

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida birlashaylik!

Korrupsiya jamiyat boshqaruvini izdan chiqaruvchi, aholini hukumat va uning mansabdor shaxslariga nisbatan ishonchini so'ndiruvchi zararli illatlardan sanaladi.

So'nggi yillarda korrupsiyaning oldini olish hamda unga nisbatan murosasiz kurashish yo'nalishida jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramasdan, ushbu illat ayrim sohalarda uchrab turganligi mamlakatimizning xalqaro nufuziga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Korrupsiya nafaqat mamlakatga moddiy zarar keltiradi, balki tadbirkorlik rivojiga, qonun ustuvorligini shakllantirishga ham to'sinlik qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Davlat tizimini ichidan yemiradigan, taraqqiiyot kushandasi bo'lgan korrupsiya balosiga, byurokratiyaning har qanday ko'rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi barchamiz keskin kurash olib borishimiz kerak", deya ta'kidlaganlari ham uning naqadar xavfli illat ekanligini ko'rsatadi.

Korrupsiya va poraxo'rlik jamiyat barqarorligining muhim asosi bo'lgan adolatning yo'qolishiga olib keladi. Mamlakatimiz mustahkamligi, xalqimiz farovonligi, yurtning rivoji va gullab-yashnashini, obod bo'lishini istagan har bir fuqaro pora olish va berish illatidan xalos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, "halollik vaksinasi" bilan emlanishi lozim.

Bugungi kunda ayrim hokim yordamchilari va tizimda faoliyat yuritayotgan ba'zi nopok xodimlar o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yib, kredit olishda, budget mablag'larining maqsadli taqsimlanishida, afsuski, qonunga zid ishlarga aralashib qolayotganliklarining guvohi bo'lyapmiz.

Xalqimiz "Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi", deb bejiz aytmagan. Sodir etilgan har qanday korrupsiyaviy jinoyat albatta, oshkor bo'ladi. Shuning uchun, yana bir karra ogohlantirimanki, har qanday jinoyat uchun jazo muqarrar. Buni har bir davlat xizmatchisi vijdonan his qilishi, ota-onasi, farzandlari va aka-singillarining g'ururi va sha'nini ko'z oldiga keltirishlari kerak.

Davlat xizmatchisi – bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig'i va manfaatlari bo'yicha uning nomidan harakat qiluvchi shaxsdir. Shunday ekan, davlat xizmatchisi degan yuksak va sharafli nomga dog' tushirmaslik uchun eng avvalo, halol bo'lishimiz, oldimizga qo'yilgan vazifalarni vijdonan, vatanparvarlik tuyg'usini to'liq his etgan holda bajarishimiz lozim.

Ish faoliyatimizda korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatda bo'laylik, xalqimizga halol va sadoqat bilan xizmat qilishni asosiy burchimiz va vazifamiz, deb bilaylik.

Faoliyatimizni qaytadan xolis tahlil qilib, vazirlik oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarni shaxsiy manfaatimizdan ustun qo'ygan holda sidqidildan bajarishga barcha kuch va salohiyatimizni safarbar etaylik.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Taraqqiyot strategiyasi"da belgilab berilgan maqsadlar, shuningdek, vazirlik oldiga qo'yilgan vazifa va topshiriqlar ijrosini so'zsiz va og'ishmay bajarilishini ta'minlaylik.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida birlashaylik!

Murojaatlar uchun ishonch raqami: 71-200-06-00